



# International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

*International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.*

## **Soliq Ma'muriyatchiligida Qo'shilgan Qiymat Solig'ini Hisoblab Chiqarishning Amaldagi Holati**

**Quyliyev Ulug'bek Rashidovich**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarishning nazariy va iqtisodiy asoslari, bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning fikrlari o'rganilgan. Shuningdek mavzuga doir olib borgan tadqiqotlari natijasi bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarishga oid xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** soliqlar, qo'shilgan qiymat solig'i, soliq tizimi, soliq ma'muriyatchiligi, soliq organlari, tax gap, soliq stavkasi.

Qo'shilgan qiymat solig'i ma'murchiligini takomillashtirish yo'nalishlari biri bo'lib raqamlashtirish hisoblanadi. Raqamlashtirish sharoitida QQS hisobotini elektron texnologiyalar yordamida tuzish va elektron hisobvaraqa-fakturalar, tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasida elektron hujjat aylanishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Elektron hisobvaraqa - fakturalarni rasmiylashtirishda yetkazib beruvchida tovarlarning mavjudligini avtomatik ravishda aniqlash elektron xizmatini Yagona milliy elektron katalog identifikatsion kodlari asosida joriy etishni ta'minlaydi.

Mamlakatimizda QQSni hisoblashda hisob faktura asosida hisoblash usulidan keng foydalanadi. O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 avgustdagi "Qo'shilgan qiymat solig'i hamda chet el yuridik shaxslari bilan bog'liq soliq ma'murchiligini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 489-son qarori bilan tasdiqlangan "Hisobvaraqa-fakturalarning shakllari hamda ularni to'ldirish, taqdim etish va qabul qilish tartibi to'g'risida "NIZOMda Hisobvaraqa-faktura - O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq uni taqdim etish majburiyatiga ega bo'lgan tovarlarni (xizmatlarni) sotuvchi (yetkazib beruvchi) tomonidan rasmiylashtiriladigan qat'iy belgilangan namunadagi (formatdagi), tovarlar haqiqatda jo'natilganligini yoki xizmatlar ko'rsatilganligini va ularning qiymatini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Hisobvaraqa-faktura sotuvchi (yetkazib beruvchi) tomonidan taqdim etilgan qo'shilgan qiymat solig'i summasini xaridor (buyurtmachi) hisobga olishi uchun asos bo'ladigan birlamchi hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 25 iyundagi "O'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraqa-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 522-son qaror bilan tasdiqlangan "O'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron

shakldagi hisobvaraƒ-fakturalardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda elektron hisobvaraƒ-faktura quyidagicha e‘tirof etilgan: “Elektron hisobvaraƒ-faktura (keyingi o‘rinlarda EHF deb ataladi) — tovarlarni (ishlar, xizmatlarni) realizatsiya qilish va sotib olishni tasdiqlaydigan, EHF aylanish tizimi operatorlari orqali taqdim etiladigan va qabul qilinadigan, qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilangan shakllarda rasmiylashtirilgan elektron hujjat”<sup>1</sup>.

2024 yilning yanvar-dekabr oylarida rasmiylashtirilgan elektron hisobvaraƒ-fakturalar tovar aylanmasi 2 041,6 trln. so‘m yoki 2023 yilga nisbatan 367,1 trln. so‘mga (22 foizga) ortgan bo‘lsa, QQS summasi 169,5 trln. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 32,0 trln. so‘mga (24 foizga) oshgan. Ularda aks ettirilgan tovar aylanmasi 1 041,6 trln.so‘m bo‘lib, 2023 yilning mos davriga nisbatan 367,1 trln.so‘mga (22,0 foizga) ortgan bo‘lsa, QQS summasi 169,5 trln.so‘mni tashkil qilib, 32,0 trln.so‘mga (23foiz) oshgan.

Mazkur natijalarga hisob-varaƒ fakturalarning elektron shaklda rasmiylashtirilshi orqali erishilgan. Xo‘sh elektron schyot fakturani amaliyotda qo‘llash xorij mamlakatlarida qanday yo‘lga qo‘yilgan?

**Xitoy Xalq Respublikasida** soliƒdan qochishning oldini olish va qonunchilikka rioya qilish darajasini oshirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyaga asoslanilgan “**Oltin soliq loihasi**”(Golden Tax Project (GTP)) deb nomlangan moliyaviy islohatni amaliyotga joriy qilingan. Bu moliyaviy iclohat bevoqita QQSga ham tegishlidir. Zamonaviy axborot texnologiyadan foydalanishni takomillashtirish va qog‘ozsiz hujjatlar aylanishini tezlashtirish maqsadida elektron arxivlashtirishni rivojlantirmoqda.

**Rossiya Federasiyacida** elektron schyot-fakturaga o‘tishda 2010 yil 27 iyuldagi 229-FZ-sonli Federal Qonun bilan R.Fning Soliq Kodekciga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish asos bo‘ldi<sup>2</sup>.

Ushbu qonunga asosan RFning Soliq Kodeksida soliq munosabatlarida foydalanadigan elektron hujjatlar ro‘yxati kengaytirildi va bu ro‘yxatga elektron schyot-faktura ham kiritildi. Elektron Schyot-fakturadan foydalanish RFning Soliq Kodekcining 169-moddaci 1-bandida mustahkamlab qo‘yildi. Elektron schyot-fakturaning shakli esa R.F. Federal Soliq xizmatining 2016 yil 24 martdagi MMV-7-15/155-conli buyrug‘i<sup>3</sup> bilan tasdiqlangan. Hozirgi vaqtda Rossiya Federatsiyasi Federal soliq xizmati soliq to‘lovchilar faoliyatini nazorat qilish maqsadida 20 dan ortiq axborot komplekslaridan foydalanadi. Fiskal organlar soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashni aniqlashda AIS «Налог-3», PIK «Однодневки», PIK «Счета-фактуры», «VNP-Отбор», PIK «Доход», PIK «Таможня», PIK «Схемы», PP «Контрол НДС» va boshqa dasturiy mahsulni qo‘llamoqda<sup>4</sup>.

**Yevropa Komissiyasi** Yevropa Ittifoqining biznes uchun qo‘shilgan qiymat solig‘i (QQS) tizimini modernizatsiya qilish va takomillashtirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish va rag‘batlantirish orqali firibgarlikka chidamliroq qilish bo‘yicha qator chora-tadbirlarni taklif qildi. Bu takliflardan asosiysi yangi elektron hisob fakturaga o‘tishdir. Yangi elektron hisob-faktura tizimiga o‘tish Yevropa Ittifoqiga a‘zo davlatlarga kelgusi o‘n yil ichida hozirda QQS firibgarligi tufayli yo‘qolgan pullarning yiliga 11 milliard yevrogacha daromadni qoplashga yordam beradi<sup>5</sup>.

Mamlaktimizda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 sentabrdagi “Soliq to‘lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo‘shilgan qiymat solig‘ining

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 25 iyundagi “O‘zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraƒ-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 522-son qaror bilan tasdiqlangan “O‘zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvaraƒ-fakturalardan foydalanish tartibi to‘g‘risida NIZOM”.

<sup>2</sup>Федеральный закон № 229-ФЗ от 27 июля 2010 г.

<sup>3</sup>Приказ ФНС от 24.03.2016 № ММВ-7-15/155.

<sup>4</sup> АСК НДС и другие комплексы налоговой для контроля за уплатой НДС. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <https://www.Мерк. ru/буh/артислес/503054/>. - (дата обращения: 7.04.2023).

<sup>5</sup> Вероника В. Еврокомиссия внесла предложения по совершенствованию системы НДС с учетом эпохи цифровизации. <https://internationalwealth.info/offshore-tax/vnesenij-predlozhenij-po-korrektirovke-sistemy-nds-v-es/>. 25.09.2023.

o‘rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 595-son qarori bilan “Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilarini soliq organlarida qo‘shilgan qiymat solig‘i bo‘yicha maxsus ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom” tasdiqlandi<sup>6</sup>. Ushbu Nizomda qo‘shilgan qiymat solig‘i jarayonini raqamlashtirish va avtomatlashtirish maqsadida quyidagi vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 2023 yil 18 avgust kuni mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvda, tadbirkorlik sub’ektlari o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovlarda qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilarining 70 foizi ushbu soliqni qaytarishda soliq uzilishi koeffitsentini qo‘llash, ya’ni “tax gap” tizimi adolatsiz ekanini bildirganinini, soliq tizimidagi korrupsiya bilan bog‘liq shikoyatlar haddan tashqari ko‘payib ketgani ham aynan “tax gap” bilan bog‘liqligini ta’kidlab o‘tgan. Shu sababli, 2023 yil 1 oktabrdan boshlab qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarishda soliq uzilishi koeffitsentini qo‘llash amaliyoti, ya’ni “tax gap” bekor qilinishini ta’kidlab o‘tgan<sup>7</sup>.

“Tax gap” – bu ingliz tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinganda “soliq bo‘shlig‘i” ma’nosini berib, ko‘p sonli xorij davlatlari tajribasida bu tushuncha xar bir soliq turi bo‘yicha undirish imkoni bo‘lgan potensial soliq hamda haqiqatda undirilayotgan soliq o‘rtasidagi farq, ya’ni undirilmay qolinayotgan soliq miqdori yoki soliq bo‘shlig‘ini anglatadi. Qo‘shilgan qiymat solig‘i to‘lovchilari sonining ko‘payishi soliq ma’muriyatchiligi uchun soliq to‘lovchilar faoliyatini nazorat qilish imkoniyatini pasaytirib, soliq to‘lovchilar tomonidan turli soliqdan qochish sxemalaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bunday imkoniyatlardan biri xufyona iqtisodiyot sharoitida bir kunlik korxonalarini tashkil etish, ular tomonidan soxta hisobvara-q-fakturalar yaratish orqali budjetga tushishi lozim bo‘lgan QQS summasini kamaytirish hisoblanadi.

Mamlakatimizda qo‘shilgan qiymat solig‘ining stavkasi yildan yilga pasayib bormoq, bu esa tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlashdan dalolatdir (1-jadval)

**1-jadval O‘zbekiston Respublikasida qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasining 2018-2025 yillardagi o‘zgarish dinamikasi<sup>8</sup>**

№	Ko‘rsatkichlar	Yillar							
		2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi, foizda	20	20/15 <sup>9</sup>	15	15	15	12	12	12

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 26 sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoniga asosan 2019 yilning 1 oktabrdan qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. O‘zbekiston Respublikasining 2022 yil 30 dekabrda O‘RQ-812-son Qonuniga asosan 2023 yil 1-yanvardan QQS stavkasi 12 foiz etib belgilangan.

Qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasining 2023 yil 1 yanvardan 12 foizgacha pasaytirilishi qiymat zanjiri uzluksiz shakllangan taqdirda korxonalarda faollikni yanada oshiruvchi va shu bilan birgalikda iste‘mol narxlari oshishini sekinlashtiruvchi omil sifatida qarotildi. Mamlakatimizda qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkasining pasayishi, soliq ma’urchiligini soddalashtirishiga qaramasdan lekin uning budjet daromadlari va bilvosita soliqlar takibidagi hali ham sezilarli

<sup>6</sup> O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 sentabrdagi “Soliq to‘lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo‘shilgan qiymat solig‘ining o‘rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 595-son qarori.

<sup>7</sup> <https://president.uz/uz/lists/view/6561> - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqi.

<sup>8</sup> Jadval muallif tomonidan shakllantirilgan

<sup>9</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 26 sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.

darajada qolmoqda.

### **Xulosa va takliflar.**

Xulosa qilib aytganda, soliq organlari, bojxona organlaridan olingan import operatsiyalari to'g'risidagi, tovarlar bojxona chegarasini kesib o'tganidan keyin eksport operatsiyalari bo'yicha, shuningdek, tovarlarni olib o'tish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali elektron tijorat shaklida amalga oshirilgan tovarlarni olib o'tish haqidagi, O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining bojxona omborlarida tovarlar saqlanayotganligi faktlari to'g'risidagi axborotlar 2025-yil 1-sentabrdan boshlab oxirgi uch yilda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi 10 milliard so'mdan oshmagan hamda budjet va kreditorlar oldida qarzdorligi mavjud bo'lmagan hamda muntazam ravishda soliq hisobotlarini taqdim etayotganlarining hisob ma'lumotlarini soliq siri sifati hisobga olish kerak deb hisoblaymiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 25 iyundagi "O'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvara-q-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 522-son qaror bilan tasdiqlangan "O'zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvara-q-fakturalardan foydalanish tartibi to'g'risida NIZOM".
2. Федеральный закон № 229-ФЗ от 27 июля 2010 г.
3. Приказ ФНС от 24.03.2016 № ММВ-7-15/155.
4. АСК НДС и другие комплексы налоговой для контроля за уплатой НДС. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: [хттпс://www.Мерк.ру/бух/артислес/503054/](https://www.Мерк.ру/бух/артислес/503054/). - (дата обращения: 7.04.2023).
5. Вероника В. Еврокомиссия внесла предложения по совершенствованию системы НДС с учетом эпохи сифровизатсии.<https://internationalwealth.info/offshore-tax/vnesenij-predlozhenij-po-korrektirovke-sistemy-nds-v-es/>. 25.09.2023.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 22 sentabrdagi "Soliq to'lovchilarni hisobga olishni yanada takomillashtirish va qo'shilgan qiymat solig'ining o'rnini qoplash tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 595-son qarori.
7. <https://president.uz/uz/lists/view/6561> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 26 sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.